

TURKIYLARNING ETNIK KELIB CHIQISH TARIXI**Bahodirov Egamberdi***Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti**Amaliy fanlar fakulteti 2-kurs Sirtqi. Tarix**(ShMT): turk-ingliz*

Annotatsiya: Jahonning eng yirik etnoslardan biri - turkiy xalqlardir. Ularning kelib chiqish tarixi uzoq davrlar borib taqaladi Maqolamizda turk xalqilarning etnik shakllanishi tarixiga e'tibor qaratmoqchimiz

Kalit so'zlar: Oltoy, Saljuqiylar, qipchoqlar, o'g'uzlar, G'arbiy turklar.o'zbeklar qadimgi Turklar shamanizm diniga e'tiqod

Abstract: One of the largest ethnic groups in the world is the Turkic peoples. Their history of origin dates back to ancient times. In our article, we would like to focus on the history of the ethnic formation of the Turkic peoples.

Keywords: Altai, Seljuks, Kipchaks, Oghuz, Western Turks. Uzbeks, ancient Turks, belief in the religion of shamanism

Аннотация: Одной из крупнейших этнических групп мира являются тюркские народы. История их происхождения восходит к глубокой древности. В нашей статье мы хотели бы остановиться на истории этнического формирования тюркских народов.

Ключевые слова: Алтай, Сельджуки, Кыпчаки, Огузы, западные тюрки. Узбеки, древние тюрки, шаманизм

Turkiylar jahondagi eng qadimiylar va doimiy xalqlardan biridir. Bu katta milliy jamoa bo'lib, uning tarixi to'rt ming yildan oshadi. Turk, turkiylar - jahondagi eng yirik etnoslardan birining nomi. Turk so'zining ma'nosi "baquvvat", "barkamol", "odil" degan ma'nolarni anglatadi. Umuman olib qaraganda, turk atamasiga doir turli farazlar, talqinlar mavjud. Ular orasida turk atamasini Avestanning "tur"lar bilan bog'liq -k qo'shimchasini ko'plik qo'shimchasi, deb tushuntiradi. A.H. Kononov turk so'zini "tur" so'ziga bog'lab, "hurmatga sazovorlar uchun yuqoridagi o'rinni", "o'choq oldidagi hurmatga loyiq joyni", "qonun, qoida, odat" kabi talqin qiladi.[1] I.V. Rak esa turk so'zini hind-yevropa til umumilliyligi bilan bog'lab yovvoyi "ho'kiz-tur" orqali izohlaydi.[2] V.P. Yaylenko Yensey ketlari tilida turk so'zi "toza, pokiza" deb tushuntiradi.[3] Turkiy xalqlar haqida Xitoy manbalarida "turk-turkyut-turkyu" kabi nomlar bilan atalgan. Ularni etnik kelib chiqishini Xitoyning shimoliy-g'arbida joylashgan Oltoy etaklari bilan bog'laydi. Bunday qarashlar turkiy xalqlarning asl makonlari haqidagi tasavvurlarini juda tor qilib ko'rsatadi. Shu bilan bиргаликда Xitoy Oltoydagagi vaziyat bilan yaqindan tanish bo'lgan. Ammo mil.avv. I ming yilikdayoq

turkiy xalqlarning O'rta Osiyo, Volgabo'yi, Don Kuban havzalari, Shimoliy Kavkaz, Janubiy Rus cho'llari - to Dunaygacha hududlarda kechgan etnik jarayonlardan bexabar edi. Turkiylarni shimolda xavf solib turuvchi kuch sifatida qaragan.[4] Turkiy xalqlarining vatani qayerda degan savolga olimlar o'z fikrlarini bildirishgan. Klaprot va Vamberi turkiylar tarixini xitoy manbalariga tayanib, Oltoy tog'larining etaklari turkiy xalqlarining vatani deb atashgan.[5] Taniqli turkolog Radlovning yozishicha, bu hudud Oltoyning sharqidagi hozirgi Mo'g'uliston hududini qamrab olgan. Ramstedt turkiy va mo'g'ul tillarining o'xshashligiga asoslanib, turklar Mo'g'ulistondan kelib chiqqan deb taxmin qilgan. O'rta Osiyodagi turkiylar tarixi bo'yicha taniqli mutaxassis Bartold Mo'g'uliston hududidagi mintaqani turkiy xalqlarning vatani, deb hisoblaydi. Bugungi kunda bu qarashlar eskirgan va ko'rib chiqilayotgan hududni kengaytirish kerak

Lingvistik va arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turkiy xalqlarning vatani Oltoy tog'larining g'arbiga cho'zilgan. Vengriyalik taniqli sharqshunos-turkolog Nemetning fikricha, turkiy xalqlar vatani bugungi Qozog'iston hududida, ya'ni, Oltoy va Ural tog'lari oralig'ida bo'lishi kerak. Sibir va Oltoy tog'larining janubiy viloyatlarida olib borilgan arxeologik va etnografik tadqiqotlar davomida turkiy xalqlarning qadimiy hududlari bilan bog'liq ba'zi natijalarga erishilgan. Sovet davrining taniqli arxeolog-tarixchi olimi S.V.Kiselev (1905-1962 yy)ning «Sibirning eng qadimgi tarixi» (1951 y) asarida ta'kidlanganidek, «g'or rasmlari» va Baykal ko'li shimolida, Lena daryosi quyilishi va (Yettisuv) Semireche mintaqasida topilgan arxeologik topilmalar bu yerlarning qadim zamonlardan beri saqlanib qolgan etnik xususiyatlarini aks ettiradi. Tarixiy manbalarga ko'ra, turkiy jamoalarning birinchi turar joylari Oltoy tog'lari hududida bo'lgan. Tyan-Shan va Oltoy tog'lari orasida yashagan turklar Olttoy xalqlari qatoriga kiradi

"Qadimgi Sibir tarixi" asarida (1951) ta'kidlanganidek, Baykal ko'lidan shimolda, Lena daryosi va Semirechye mintaqasida topilgan "g'or rasmlari" va arxeologik topilmalar bu yerlarning etnik xususiyatlarini aks ettiradi va qadim zamonlardan beri saqlanib qolgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, turkiy jamoalarning birinchi turar joylari Olttoy tog'lari hududida bo'lgan. Tyan-Shan va Oltoy tog'lari orasida yashagan turklar Olttoy xalqlari qatoriga kiradi. O'rta Osiyo hududlarida yashagan turkiy xalqlar, geografik va ijtimoiy hayot sharoitlarining o'zgarishi tufayli bu yerlarni tark etishga majbur bo'lgan. Yangi hududlarda turklar ko'plab mustaqil davlatlarga asos soldi. Turklarning birinchi ko'chish oqimlari qaysi davrga to'g'ri kelishi aniq ma'lum emas, lekin u miloddan avvalgi I ming yillik boshlarini o'z ichiga oladi deb ishoniladi. Katta ko'chirish natijasida turklar Kaspiy dengizining janubi va Eron tog'lari orqali o'tib (ularning ba'zilari Eronda qoldi) Mesopotamiyaga tushib, u yerdan Suriya, Misr, Anatoliya va orollariga bostirib kirishdi, Egey dengizi. Bu yerda tarixning turli davrlarida mustaqil turkiy davlatlar tashkil etilgan: Saljuqiyalar davlati, Saljuqlar

sultonligi, Usmonli imperiyasi va Turkiya Respublikasi. IV asrning oxiriga kelib, turklar Kaspiy dengizining shimolidan o'tib, Shimoliy -Sharqiy Osiyodan Sharqiy Evropaga ko'chib o'tdilar. Vaqt o'tishi bilan ular Markaziy Evropaga, Bolqon yarim oroli va Dunay daryosi vodiysiga joylashdilar. Keyinchalik bu hududlarda turkiy davlatlar ham vujudga keldi. Miloddan avvalgi 2500 yilda boshlangan turkiy xalqlarning sharqqa harakati uzoq vaqt ma'lum uzilishlar bilan davom etdi. Xitoyning zamonaviy hududlari - Shansi va Gansuga joylashib olgan turklar o'z madaniyati va sivilizatsiyasini bu yerlarga olib kelishdi va uzoq vaqt Xitoyda hokimiyatni qo'llarida ushlab turishdi. Shan davlatiga asos solgan Shan sulolasi, turklar urug'idan kelib chiqqan. Chjou sulolasi tomonidan tor-mor qilingan (miloddan avvalgi 1050-247 yillar). Vaqt o'tishi bilan kuch topgan Chjou sulolasi Xitoy tarixining boshlanishi deb hisoblaydigan

Geografiya, tarixiy rivojlanish, sheva va talaffuzlarga xos xususiyatlarga ko'ra qaysi qabilalarni turkiy jamoalarga oid deb hisoblaydigan Bu jihatdan bir necha turkiy qabilalarni ajratish mumkin. Muhammad al Qoshg'ariy «Devonu lug'atit turk» asarida XI asrda turkiy xalqlar haqida ma'lumot ber utgan ekan, o'g'uzlar, qipchoqlar, uyg'urlar, qarluqlar, qirg'izlar, yag'molar, bolgarlar, boshqirdlar va boshqalar haqida ma'lumot bergen. Ularning ko'pchiligi o'g'uz va qipchoq qabilalariga mansub.

XI asrning ikkinchi yarmidan keyin Sirdaryo vodiysida yashovchi qabilalardan bo'lgan o'g'uzlar G'arbiy (Old) Osiyo va Anatoliyaga (Kichik Osiy yarim oroli), Irtish daryosi havzasidagi qipchoqlar ommaviy ravishda Kaspiy va Qora dengiz shimolidagi pasttekisliklarga ko'chib ketishgan. VI asrda bolgarlarning bir qismi zamonaviy Bolgariya hududiga joylashgan. Ko'p yo'nalishli migratsiya oqimiga qaramay, turkiy qabilalar uyushmalarining muhim qismi O'rta Osiyoda qolgan. Bu tarixiy fakt turkiy jamoalarning shakllanishi va hozirgi tuzilishi nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

O'g'uzlar qabilasi «g'arbiy turklar» nomi bilan mashhur bo'lgan kata guruhga asos bo'lib qolgan. Qipchoqlar shuningdek, Qora dengizning shimolidan Dunay qo'shilishigacha bo'lgan hududlarda yashagan boshqa turkiy xalqlarni o'z ichiga olgan katta jamoani tashkil qilgan. Binobarin, qipchoqlar bugungi kunda «Sharqiy Yevropa turklari» nomi bilan mashhur bo'lgan guruh asosiga aylangan. Uchinchi guruhnini Chig'atoy va O'zbek uluslarining birlashishi natijasida hosil bo'lgan «Sharqiy turklar» yoki «Turkiston turklari» tashkil qiladi. Bu jamoani O'rta Osiyoda qolgan boshqa turkiy qabilalar tashkil qilgan. Bu tarkibga keyinchalik

Turkistonga qaytgan qipchoqlar guruhlari ham kirgan. To'rtinchi guruhga Sibir va Oltoy turklari kiradi. G'arbiy Sibir va Oltoyning turli qabilalari asosan qipchoq yoki qirg'iz qavmiga mansub turklar millatlari asli turkiylar ekanligi aytildi di. www.ziyouz.com kutubxonasi.

Qadimgi turklar shamanizm1 diniga e'tiqod qilgan. Ularning asosiy ramziyorug'lik bo'lgan Ko'k-Tangri va Moviy osmon muqaddas sanalgan. Ularning tasavvuridagi Xudo – Tangri xalq, hoqonlik va hukmdorlar taqdirini belgilagan.

1 Shamanizm - "shaman»so'zi tungus– manchjur tilidagi "sa» – bilmoq fe'li bilan bog'liq, "saman» – biluvchi kishi.

Shamanizm animizm, totemizm va fetishizm natijasida yuzaga kelib, u orqali kishilar o'z totemlari, ota–bobolarining ruhlari bilan xayolan bog'lanishni amalga oshirib kelganlar. O'tmishda ko'proq ayollar shamanlik bilan shug'ullanganlar. Shamanlar jazavali, tez junbushga keladigan kishilar bo'lib, odamlar ularning ruhlar bilan muloqotda bo'lishi, jamoaning umid va niyatlarini yetkazish, ularning irodasini talqin qilish qobiliyatiga ega ekanligiga juda ishonganlar. Shamanlar ritual harakatlari orqali – ovoz chiqarish, ashula aytish, raqsga tushish, sakrash yo'li bilan nog'oralar va qo'ng'iroqlar ovozlari ostida o'zlarini jazavaga solib, o'zini yo'qotish, jazavani yuqori natijaga yetkazish bilan afsungarlik qilishgan. Shaman marosim oxirida bir holatga kelib hech narsani eshitmay, ko'rmay qolar edi. Shuning uchun uning ruhlar dunyosi bilan muloqoti xuddi shu holatda amalga oshadi deb hisoblanardi. Bu odamlarning fikr yuritishi, ongingin mustahkamlanishida katta rolъ o'ynadi va diniy ongning shakllanishida muhim o'rinn tutdi. Kadimgi turkiy xalqlar dev, jin, pari, ruhlar borligiga ishonib, ular bilan shomonlar orqali bog'lanish mumkin, deb hisoblaganlar. Shomonlar homiy ruhlarga atab qurbanliklar qilganlar, yovuz ruhlardan saqlanish maqsadida afsunlar o'qib, poklanish uchun "chilla» o'tirganlar. Shomonlik asrlar davomida saqlanib kelgan va muntazam rivojlangan. Hozirda ham shomonlik turli - shamanizm xalqlar e'tiqodida saqlanib qolgan. Ular "baxshi», "parixon» deb ataladi